



XONGUL – NOYOB HAYVON

MEYLIQUOLVA MUXLISA

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI BIOLOGIYA TA'LIM YO'NALISHI
TALABASI

ANNOTATSIYA: Maqolada noyob tur hisoblangan, O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitob"iga kiritilgan buxoro bug'usi - xongul, uning tashqi ko'rinishi, uchrash joylari, oziqlanishi va ko'payishi, shuningdek, bu turni o'rganish va saqlab qolishga qaratilgan chora tadbirlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Juft tuyoqlilar, panta, shox tashlash, iqlimlashtirish, geologik va qadimshunoslik manzilgohlari.

KHONGUL – A UNIQUE ANIMAL

ABSTRACT: The article deals with the Bukhara deer, a rare species listed in the Red Data Book of the Republic of Uzbekistan, its appearance, meeting places, feeding and reproduction, as well as measures to study and preserve this species. information about.

Keywords: Double-hoofed, antelope, hornbeam, climate, geological and archeological sites.

KIRISH

Xongul, Buxoro bug'usi – bug'ular oilasi, juft tuyoqlilar turkumiga mansub sut emizuvchi hayvon. Tanasi 78-86 sm, bo'yi (yag'rinidan) 56-60 sm, og'irligi 75-100 kg. To'q kulrang, yelkasida qoramtir yo'llari bor. Ilgari Amudaryo, Sirdaryo va Orol dengizi sohillaridagi qamishzor va to'qaylarda tarqalgan edi.



ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Asl zotli buxor bug‘usi O‘zbekiston Respublikasi hududidagi bug‘ularning yagona turidir. Ularning erkagida serbutoq va har yili tushib turadigan shoxlari bo‘ladi. Yangi o‘sayotgan shoxlari yumshoq tog‘aysimon o‘simtaga o‘xshab o‘sadi, ustki tomondan mayin baxmalsimon teri bilan qoplangan bo‘lib, bu holatdagi shox panta deb ataladi. Panta tibbiyotda ishlatiladi, undan pantakrin dori olinadi. Shox tashlagan erkagi holsizlanib yotoqchilaydi, ishtahasi yo‘qoladi. Bu hol bir oy davom etadi. Har yili shox almashgandan keyin undagi butoqlar soni ko‘paya boradi, ammo besh butoqdan oshmaydi. Suvda yaxshi suzadi. Ular asosan kunning salqin paytlari oziqlanib, issiq paytlarda salqin joylarda dam olishni xush ko‘radi. Bu bug‘u yilning fasliga qarab, ovqat axtarib, yaylovdan yaylovga ko‘chib yuradi. Uning asosiy ozuqasi har xil o‘tlar, daraxtlarning bargi, yosh novdalari va butoqlaridan iborat. Tutqinlikda, ya‘ni hayvonot bog‘ida boqilayotganlari esa arpa, bug‘doy, maydalangan makkajo‘xori, beda, kartoshka, sabzavot mevalari, ko‘k beda, har xil ko‘katlar, supurgi donlari, bo‘r va suyak uni bilan ta‘minlab turiladi. Urg‘ochi bug‘ular 2 yoshdan, erkaklari esa 4 yoshdan oshgandan keyin jinsiy voyaga yetadi. May oyining boshlarida bolalaydi, bolasini 4-5 oy davomida emizadi.

MUHOKAMA

Bu noyob jonivor Tojikiston hududida joylashgan qo‘riqxonalarda hamda Turkmanistonnig Darganota to‘qayzor mintaqalarida oz miqdorda bo‘lsa ham saqlanib qolgan. Keyingi yillarda respublikamiz hududidagi Payg‘ambar oroli, Qizilqum va Badayto‘ay qo‘riqxonalari ham bu noyob jonivorni ko‘paytirish borasida muhim ishlar qilindi. Badayto‘ay qo‘riqxonasida 1975- yilda 2 ta ona, 1 ta erkak buxor bug‘usi iqlimlashtirish uchun olib kelingan edi. Ular qisqa vaqt ichida sharoitga moslashib, soni 25 taga yetdi. Qizilqum qo‘riqxonasida esa tashkil etilgan (1971) vaqtda 20 ta buxor bug‘usi bo‘lgan. O‘n yil mobaynida 5



marta ko'paygan. Payg'ambar oroli qo'riqxonasi asosan to'qayzor o'rmonlardan iborat bo'lib, asl zotli buxor bug'usi uchun muddaodagidek yaylovzor hisoblanar edi. Afsuski, hozirgi kunda asl zotli buxor bug'usi –xongul yo'qolib bormoqda. Bunda, albatta, Afg'onistondagi notinch vaziyatning ta'siri juda kattadir.

NATIJA

Keyingi yillarda O'zbekiston hududida olib borilayotgan geologik va qadimshunoslik tadqiqotlari natijasida turli davrlarga tegishli bo'lgan qadimgi odamlarning manzilgohlari o'rganilmoqda va o'sha davrga tegishli bo'lgan hayvonot olamini ham o'rganishga imkon yaratildi. Jumladan, Farg'ona vodiysidagi Qopchig'ay, Obishir g'orlari, Chust, Dalvarzin manzilgohlaridan topilgan buxor bug'usining suyak qoldiqlari o'sha davrlarda Sirdaryo sohilidan Farg'ona vodiysigacha bo'lgan hududlarda buxor bug'usi yashaganligidan dalolat beradi. Ayniqsa Farg'ona vodiysidagi Qatrantov tog'laridagi yovvoyi jonivorlar, tog' takalari va bug'ularning toshga bitilgan tasvirlari fikrimizning ashyoviy isboti bo'la oladi. Toshkent viloyati hududidagi Obirahmat g'ori, Ko'lbuloq, Bo'zsuv, Qovunchi, Shoshtepa manzilgohlaridan topilgan suyak qoldiqlari buxor bug'usini ajdodlarimiz qadim zamonlardan boshlab ov qilib kelganligidan, ularning terisidan, shoxi va go'shtidan foydalanganligidan dalolat beradi. Keyingi vaqtlarda keng miqyosda olib borilgan muhofaza tadbirlari tufayli nomi «Qizil kitob»ga tushgan jonivornlarni asrab avaylashga e'tibor kundan kunga ortib bormoqda.

Biroq shunga qaramay, bu yo'lda amalga oshiriladigan ishlar talaygina. Jumladan, hozirgi vaqtda yerlarning jadal sur'atlar bilan o'zlashtirilishi va avtomobil yo'llarining kengaytirilishi hamda bug'ular yashaydigan yaylovlardan foydalanish ustidan nazoratning yo'qligi asl zotli buxor bug'usi uchun zarur bo'lgan ekologik muhitning buzilishiga olib keldi. Tartibsiz ravishda ov qilinishi bu jonivornlarning batamom qirilib ketish xavfini tug'dirmoqda. Shu boisdan buxor



bug‘usini muhofaza qilish hammaning va barcha zoologlarning hozirgi kungi asosiy vazifalaridan biri bo‘lib qoldi.

Asl zotli buxor bug‘usi tabiat boyligidir. Bu noyob jonivorlar kam uchraydigan hududlarda ularni muhofaza qilish va sonini ko‘paytirish choralarini ko‘rish kerak, ko‘paygandan keyin ularni Sirdaryo va Amudaryo sohillaridagi qamishzor to‘qaylarga hamda ilgari yashagan hududlariga tarqatish imkoniyati yaratiladi.

XULOSA

Tabiat mavjudotlaridan bo‘lgan hayvonot dunyosi qayta tiklanishi mumkin bo‘lgan boyliklardan hisoblanadi. Jumladan, hayvonot bog‘lari, qo‘riqxonalar, va buyurtmaxonalar yordamida tabiiy sharoitlarni yaratish orqali ularning sonini tiklash mumkin. Bu esa hayvonot bog‘larida noyob va yo‘qolib ketish xavfi tug‘ilgan jonivorlarni ko‘paytirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan ,hayvonot bog‘ida qoraquloq, buxor bug‘usi, va morxo‘rlarni urchitib , ulardan ko‘plab nasl olinganligi , bolalari esa Hamdo‘stlik davlatlarida joylashgan hayvonot bog‘lariga yuborilganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Noyob ba yo‘qolib ketish xavfi tug‘ilgan jonivorlarning tabiiy va ekologik sharoitini tiklash, ya’ni daryo qirg‘oqlaridagi to‘qayzorlarni, suv havzalari va tog‘ yonbag‘rilaridagi tabiiy sharoitni o‘z holatiga keltirib, tutqunlikda ko‘paytirilgan jonivorlarni qo‘yib yuborish yo‘li bilan amalga oshirish mumkin.





REFERENCES

1. T. Xudoyberdiyev, O. Rasulov “Toshkent hayvonot bog‘i” Toshkent -2004y
2. F. Nazarova .D. Tursunova “Qiziqarli biologiya” “Akademnashr” -2020y
3. S.Dadayev, O. Mavlonov «Zoologiya» Toshkent -2008y
4. O.Mavlonov «Biologiya» Toshkent -2017 y